



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA NUKUS SHAHRIDA EHINOKOKKOZ KASALLIGINI TARQALISHI

Arziyev Xidir Yuldashovich

TDAU dotsenti, v.f.n.

E-mail: arziyevxidir70@mail.ru

Abdulakimov Kamoliddin Ne'mativich

TDAU stajyor o'qituvchi

Olimjonova Mohlaroyim Dilmurod qizi

TDAU talaba

Hamraliyeva Ruxshona bahromjon qizi

TDAU talaba

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasining Nukus shahri Nukus shahri qushxonalarida suyilgan 380 bosh yirik shoxli hayvonlar tekshirilganda 40 boshida (10,5 foiz), 72 bosh mayda shoxli hayvonlardan 5 boshida (6,94 foiz), exinokokkoz kasalligi qo'zg'atuvchilari aniqlanligi, tekshirilgan 73 bosh itlarning 10 boshi, ya'ni 13,69 foizida exinokokklar topilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Invazion kasallik, biotik omillar, gelmint, gijjasizlantirish, vodorod bromidli arekolin, antgelmintik, eksperimental, Echinococcus granulosus.

Mavzuni dolzarbligi:

Bugungi kunda dunyoda jumladan Respublikamizda aholi sonini ortishi natijasida aholini chorva mollaridan olinadigan mahsulotlar (go'sht, sut, tuxum, asal) ga bo'lgan ehtiyoji ortib bormoqda. Aholi ehtiyojini qondirish uchun chorva mollaridan olinadigan mahsulotlar miqdorini oshirish zaruriyatini paydo bo'lmoqda. Buning uchun birinchi navbatda parvarishlanayotgan hayvonlar bosh sonini kupaytirish va ulardan olinadigan hayvonot dunyosi mahsulotlarini miqdorini oshirish, hamda sifat



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th November, 2025

kursatkichlarini yaxshilash muammolarini yechish hozirgi kunda dolzarb masala hisoblanadi. Hayvonlarning infeksiyon kasalliklari ulardan olinadigan mahsulotlariga miqdor va sifat jihatdan salbiy ta'sir kursatadi. Infeksiyon kasalliklarga qarshi tuliq veterinariya tadbirlari o'tkazilgan bilan ulardan kuzlangan chorva mahsulotlari olishga erishib bulmayapdi sababi invazion kasalliklar ham katta iqtisodiy zarar keltirishi amaliyotda yaqqol sezilmoqda. Invazion kasalliklardan bir necha turdagi hayvonlar orasida kasallik chaqiradigan gelmintlar juda xavfli hisoblanadi. Invazion kasalliklarning ta'rifi hayvonot dunyosiga kiruvchi parazitlar (bir hujayrali sodda hayvonlar, gelmintlar, o'rgimchaksimonlar, hasharotlar va ularning lichinkalari) tomonidan chaqiriladigan barcha kasalliklar invazion yoki parazitlar kasalliklar deb yuritiladi Aynan bir hududda invazion kasalliklarning sodir bo'lishi uchun kasallikka moyil bo'lgan hayvonlar, kasallikning qo'zg'atuvchisi va uning rivojlanishi, tarqalishi, yuqishi uchun tashqi muhitning biotik va abiotik omillari mavjud bo'lishi kerak. Biotik omillarga kasallikka chalinuvchi organizmlardan tashqari parazitning rivojlanishi, tarqalishi uchun zarur bo'lgan oraliq xo'jayinlar (umumrtqasiz va umurtqali hayvonlar) ham kiradi. Ko'pchilik protozoy kasalliklar va araxnozlar aniq ifodalangan klinik belgilarga ega. Ayrim gelmintozlarda klinik belgilar unchalik aniq ifodalanmaydi. Invazion kasalliklar odatda o'tkir hamda surunkali oqimlarda kechadi. Ularning qaysi oqimda sodir etilishi hayvon organizmidagi parazitlarning miqdoriga, kasallik qo'zg'atuvchisining patogenli xususiyatiga va parazit-xo'jayin o'rtasidagi munosabatlarni qaysi darajada rivojlanishiga bog'liq. Ko'pchilik gelmintozlarda o'tkir oqim parazitlarning yoshlik davrida kuzatadi. Invazion kasalliklar klinik jihatdan to'liq ifodalangan, subklinik ya'ni klinik belgilar kuchsiz ifodalangan, yashirin ya'ni klinik belgilari uncha aniq bo'lmagan shakllarda kechadi. Bularning barchasi kasallangan hayvonlarning soniga (invaziya entensivligi), hayvonlarning individual xususiyatlariga, shu jumladan yoshiga bog'liq. Invazion kasalliklardan asosan exinokokkoz kasalligi katta iqtisodiy zarar keltiradi.

Gelmintozoonozlar orasida eng xavfli kasallik – exinokokkoz hisoblanadi. Shuning uchun biz qo'yida bu kasallik to'g'risida ma'lumotlarni havola qilamiz. Exinokokkoz - gelmintoz kasallik bo'lib odam va hayvonlarning ichki a'zolari (o'pka, jigar, buyrak va boshqalar), ba'zida muskullarda exinokokk pufaklarini



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th November, 2025

parazitlik qilishi bilan xarakterlanadi. Qo'zg'atuvchisi *Ehinococcus granulosus* (Batsch, 1786), Cestoda sinfi, Thaeniidae Ludwig 1886 oilasi, *Ehinococcus Rudolphi*, 1801 avlodiga mansub gelmintdir.

N.M.Matchanov, A. T. Sagieva, V.M. Sodiqov (1977) ma'lumotlariga ko'ra Samarqand viloyati xo'jaliklaridan olib kelingan hayvonlar go'sht kombinatida so'yilib tekshirilganda, 6056 bosh qo'ylardan 2923 boshi (48,2 foiz), 2543 bosh yirik shoxli hayvonlardan 287 boshi (11,28 foiz), 6712 bosh cho'chqalardan 240 boshi (3,58 foiz), 112 bosh tuyalardan 39 boshi (34,8 foiz), 1837 bosh echkilardan 6 boshi (0,32 foiz), 597 bosh otlardan 5 boshi, ya'ni 0,83 foizi exinokokklar bilan zararlanganligi aniqlangan.

M. Aminjanovning (2003) tekshirishlariga ko'ra qishloq xo'jalik hayvonlari orsida ham exinokokkoz yildan - yilga ko'paymoqda. Jumladan, 15 yil oldin kasallik qoramollar orsida 24,3 foizga, qo'ylar – 45,1, echkilar – 8,0, tuyalar – 25,4, eshaklar – 32,0 va itlar orasida 15,0 foizga teng bo'lgan bo'lsa, keyingi yillarga kelib qoramollarda 46,2 foizga, qo'ylarda – 65,0, echkilarda – 12,0 tuyalarda – 35,0 eshaklarda – 38 va itlarda 24,3 foizga ko'payganligi qayd qilingan.

I.H. Ergashev va boshqalar (2000) ning ma'lumotiga ko'ra exinokokkoz kasaligidan sodir bo'ladigan iqtisodiy zarar yiliga 5 mlrd. so'mni tashkil etadi.

S.A. Beer, R.S.Yermolova, Yu.I. Vaserin (1990) larning ta'kidlashicha Rossiya davlatida exinokokkoz bilan kasallangan bir odamga sarflanadigan xarajat 15068400 rublni, o'lim sodir bo'lgan holda 79122500 rublni tashkil qilgan.

F.P. Kovalenko va boshqalar (2000) ning bergan ma'lumotlariga ko'ra Rossiya fediratsiyasida exinokokkoz bilan kasallangan bir odamni operatsiya qilish jarayonidagi xarajatlar 800-1400 AQSh dollarini tashkil qilgan.

Bortelli G., Martini M (1992) ma'lumotiga ko'ra Italiyaning Sardiniya viloyatida har yili odam va hayvonlar exinokokkkozig qarshi kurashish uchun sarflanayotgan xarajatlar 23 mlrd. lirani tashkil qilgan.

X.Yu.Arziyev., Sh.M. Rasulovlarning ma'lumotlariga ko'ra exinokokklarning asosiy xo'jayinlari – it va boshqa go'shtxo'r hayvonlar zararlanib kasallikni tarqatmasligi uchun qo'yidagilarni amalga oshirish zarur. Hayvonlarni qushxonalarda so'yish, exinokokk bilan zararlangan ichki organlarni alohida ajratib



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th November, 2025

ularni zararsizlantirish; Xo'jalik sharoitida harom o'lgan, majburiy so'yilgan hayvonlarni tanasini va zararlangan ichki organlarini kuydiradigan maxsus pech yoki biotermek zararsizlantiradigan Bekker qudug'ini tashkil qilish. O'lgan mollarning gavdalari, ularni veterinariya xodimi ko'rgunga qadar itlar tegmaydigan joy va sharoitlarda saqlanishi: Veterinariya ko'rigidan o'tmagan majburan so'yilgan hayvonlarni ichki organlarini itlarga berishga yul qo'ymaslik lozim deb hisoblaydi.

Tadqiqot maqsadi: Qoraqalpog'iston Respublikasining Nukus shahrida hayvonlar orasida exinokokkoz kasalligini ilmiy tadqiqotlar asosida o'rganishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari: 1. Qishloq xo'jalik hayvonlari orasida exinokokkoz kasalligini tarqalishini o'rganish

2. Itlar orasida exinokokkoz kasalligini tarqalishi bo'yicha epizootologik ma'lumotlarni tuplash.

3. Exinokokkoz kasalligi qayd etilgan hududlarda itlarni gijjasizlantirish o'tkazish.

Tadqiqot materiallari va usullari: Ilmiy tadqiqot ishlari Qoraqolpoqiston Respublikasi Nukus shahridagi qushxonalarda suyilgan qishloq xo'jalik hayvonlarini makro ko'rik asosida, hamda Samarqand Davlat veterinariya meditsinasi, chorvochilik va biotexnologiyalar Universiteti Nukus filiali o'quv laboratoriyasida olib borildi Itlar orasida uchraydigan exinokokkoz kasalligini tarqalishi bo'yicha epizootologik ma'lumotlarni tuplash uchun Nukus shahri veterinariya va chorvochilikni rivojlantirish bo'limda o'tgan yillardagi hisobot ma'lumotlari o'rganildi, hamda chorvachilik xo'jaliklarida xizmat kursatayotgan veterinariya xodimlarining kuzatishlari asosida bajarildi. Itlarni gijjasizlantirish uchun M. Aminjonov (1987 y) usulida vodorod bromidli arekolin preparati itlarning har kg tirik og'irligiga 5 mg miqdorida 0,1 foizli suvli eritma hoida og'iz orqali yuboriladi. Itlardagi gelmintlarni tuliq organizmdan chiqarib yuborish uchun 20-25 minut oralig'ida ikkinchi marta qayta yuboriladi. Gijjasizlantirish davomida itlardan ajralib chiqqan gelmintlar yig'ib olinib shu joyda yo'qotiladi va zararsizlantiriladi.

Tadqiqot natijalari: Ilmiy tadqiqotlar Qoraqolpoqiston Nukus shahridagi "Azat Zuxra" va "Jaqsiliq Sherm" qushxonalarida suyilgan qishloq xo'jalik hayvonlarini ko'zdan kechirish orqali o'rganildi. Qishloq xo'jalik hayvonlari orasida uchraydigan

International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th November, 2025

exinokokkoz kasalligini tarqalishini o'rganish bo'yicha epizootologik ma'lumotlarni tuplash uchun Nukus shahri veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limida o'tgan yillardagi hisobot ma'lumotlari o'rganilganda keyingi yillarda hayvonlar orasida exinokokkoz kasalligi umuman qayd etilmaganligi aniqlandi, lekin qushxonalarida suyilgan qishloq xo'jalik hayvonlarini ko'zdan kechirilganda hayvonlarda exinokokklar borligi aniqlandi. O'tkazilgan ilmiy tadqiqotlarga ko'ra Nukus shahridagi "Azat Zuxra" va "Jaqsiliq Sherm" qushxonalarida suyilgan qishloq xo'jalik hayvonlaridan topilgan exinokokk qo'zg'atuvchilari to'g'risidagi epizootologik ma'lumotlar 1-jadvalda keltirilgan Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahri qushxonalarida suyilgan hayvonlarning exinokokklar bilan zararlanishi

1-jadval

№	Tekshirilgan hudud nomi	Tekshirilgan ayvonlar soni,bosh		Exinokokkozga chalinganlari,bosh		foizi	
		YSHM	MSHM	YSHM	MSHM	YSHM	MSHM
1.	"Azat Zuxra"	164	43	17	3	10,4	6,97
2.	"Jaqsiliq Sherm"	216	29	23	2	10,6	6,89
	Jami	380	72	40	5	10,5	6,94

Jadval ma'lumotlaridan kurinib turibdiki Nukus shahridagi "Azat Zuxra" qushxonasida suyilgan 164 bosh YSHM lar tekshirilganda 17 boshida (10,4 foiz), 43 bosh mayda shoxli hayvonlardan 3 boshida (6,97 foiz), "Jaqsiliq Sherm" qushxonasida suyilgan 216 bosh YSHM lar tekshirilganda 23 boshida (10,6 foiz), 29 bosh mayda shoxli hayvonlardan 2 boshida (6,89 foiz) exinokokklar qayd qilindi. Nukus shahri qushxonaslarida suyilgan 380 bosh YSHM lar tekshirilganda 40 boshida (10,5 foiz), 72 bosh mayda shoxli hayvonlardan 5 boshida (6,94 foiz), exinokokkoz kasalligi qo'zg'atuvchisi borligi aniqlandi.

Qushxonalarda suyilgan qishloq xo'jalik hayvonlari Qoraqolpoqiston Respublikasining Qonlikul, Xujayli tumanlari va Nukus shahridagi aholi xonadonlarida boqilganligi anamnez ma'lumotlarida aniqlandi. Shu sababli bu

International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th November, 2025

hududlarda *E.granulosus* ni aso'siy xujayini bulgan itlarni gijjasizlantirib sestodalarga tekshirdik. Qoraqalpog'iston Respublikasining exinokokkoz qayd etilgan hududlarida itlarning bilan exinokokklar bilan zararlanishi to'g'risidagi epizootologik ma'lumotlar 2-jadvalda keltirilgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasida itlarning exinokokklar bilan zararlanishi.

2-jadval

№	Tekshirilgan hudud nomi	Tekshirilgan itlar soni, bosh	Multitseps topilgan itlar soni, bosh	foizi
1.	Qonlikul tumani	23	2	8,7
2.	Xujayli tumani	34	5	14,7
3.	Nukus shahri	16	3	18,75
	Jami	73	10	13,69

Jadval ma'lumotlaridan kurinib turibdiki Qonlikul tumaniga qarashli aholi xonadonlarida saqlanayotgan 23 bosh itlar tekshirilganda 2 boshida (8,7 foiz), Xujayli tumaniga qarashli aholi xonadonlarida saqlanayotgan 34 bosh itlar tekshirilganda 5 boshida (14,7 foiz), Nukus shahriga qarashli aholi xonadonlarida saqlanayotgan 16 bosh itlar tekshirilganda 3 boshida (18,75 foiz) exinokokklar borligi aniqlandi. Jami tekshirilgan 73 bosh itlarning 10 boshi, ya'ni 13,69 foizida exinokokklar borligi qayd qilindi.

Xulosalar: O'tkazilgan ilmiy tadqiqotlardan olingan natijalarga asosan shuni aytishimiz mumkin:

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahri Nukus shahri qushxonalarida suyilgan 380 bosh yirik shoxli hayvonlar tekshirilganda 40 boshida (10,5 foiz), 72 bosh mayda shoxli hayvonlardan 5 boshida (6,94 foiz), exinokokkoz kasalligi qo'zg'atuvchisi borligi aniqlandi.
2. Qoraqalpog'iston Respublikasida tekshirilgan 73 bosh itlarning 10 boshi, ya'ni 13,69 foizida exinokokklar borligi qayd qilindi.



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th November, 2025

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Азимов Д.А. «Шистозоматиды животных и человека». Ташкент, Издательство «Фан», 1975 г. 65 с.
2. Аминжанов М. «Эхинококкоз – опасное заболевание». Журнал «Сельское хозяйства Узбекистана» 2003 г., №5, стр. 18-22.
3. Арзиев Х. Ю., Расулов Ш.М. “Эхинококкоз - хавфли гельминтоз” Журнал «Инфекция, иммунитет и фармакология» Ташкент. 2020 г., №4, стр. 27-33.
4. Безр А.С., Ермолова Р.С., Васерин Ю.И. “Эхинококкозы: методы исследований, лечения, профилоктики”. М., 1990. Стр 19 – 25
5. Коваленко Ф.П и др. «Эхинококкозы – биология возбудителей, эпизоотология, профилактика». Журнал «Ветеринария» 2000. № 4. стр. 46-48.
6. Матчанов Н.М., Сагиева А.Т. и Садыков В.М. «Ларвальные тениидозы человека и каракульских овец». Издательство «Медицина» УзССР. Ташкент 1977 г. стр. 79-82.
7. Эргашов Э.Х. ва бошқалар “Эхинококкоз ўта хавфли касаллик унга қарши курашинг”. / журнал “Ветеринария Узбекистана”, 2000, № 3, 3-6 бет.
8. Bartelli G., Martini M. 1992. Ann. Inst. Super sanita, 28. № 4: 473 – 475.